“ТАСДИҚЛАЙМАН”
Ўзбекистон Республикаси Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси ҳузуридаги Ўрмон хўжалиги агентлиги директори, Тармоқ илмий-техник кенгаши раиси
_____Э. М. Мухитдинов
«_8_» _сентябр_ 2026 йил

Ўзбекистон Республикаси Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси ҳузуридаги ўрмон хўжалиги агентлиги тармоқ илмий-техник кенгаши йиғилишининг
___-сон БАЁННОМАСИ

2026 йил “_8_” сентябр Тошкент шаҳри

Раислик қилди: *Э.М.Мухитдинов – Ўрмон агентлиги директори, Кенгаш раиси*

Кенгаш аъзолари: *О.Соатов, У.Собиров, Б.Мамутов, Ғ.Нематов, С.Мадаминов, Ў.Давронов, С.Холбўтаев, З.Эшонкулов, М.Ғаниев*

Қатнашдилар: Кенгаш аъзоларининг _7_ нафари (_70_%). *Кворум мавжуд.*

Таклиф этилганлар: “Ўзбекистонда барқарор ўрмон ландшафтларини тиклаш” Лойиҳани амалга ошириш гуруҳи индивидуал консултанти (Техник мутахассис), техник спецификацияларни тайёрлашда иштирок этган мутахассислар ҳамда тегишли таркибий бўлинмалар вакиллари.

КУН ТАРТИБИ:

Жаҳон банки иштирокида амалга оширилаётган “Ўзбекистонда барқарор ўрмон ландшафтларини тиклаш” (RESILAND CA+ Program: Uzbekistan Resilient Landscapes Restoration) лойиҳаси доирасида қайта харид қилиниши режалаштирилган махсус техника ва автотранспорт воситалари бўйича аввал маъқулланган техник спецификацияларни, харид пакетларининг янгиланган тузилмаси, Лойиҳа офисининг тавсиялари ҳамда техник мутахассиснинг қўшимча техник хулосаси асосида қайта кўриб чиқиш ва тасдиқлаш тўғрисида.

ЭШИТИЛДИ:

Кун тартибидаги масала бўйича Лойиҳани амалга ошириш гуруҳи вакили ахборот бериб, Тармоқ илмий-техник кенгашининг аввалги йиғилишида қайта харид доирасида фронтал юклагич, ихчам гусеницали экскаватор, ғилдиракли экскаватор, гусеницали бульдозер, бортли юк автомобили ва ўзи ағдарувчи юк автомобили (самосвал) бўйича техник спецификациялар кўриб чиқилиб, LRP/G/ICB/10 ва LRP/G/ICB/11 харид пакетлари доирасида маъқулланганлиги маълум қилинди. Аввалги Кенгаш қарорида техник спецификацияларга мазмунан ўзгартиш киритиш зарурати юзага келган тақдирда, уларни техник мутахассислар билан қайта келишган ҳолда белгиланган тартибда тасдиқлаш назарда тутилган. .

Кейинчалик қайта харидларни ташкил этиш ва харид пакетларини техник жиҳатдан бир турдаги товарлар бўйича мақбул шакллантириш натижасида аввалги икки харид пакети таркибидаги олти турдаги махсус техника ва автотранспорт воситалари қуйидаги харид пакетларига тақсимланганлиги маълум қилинди:

№	Харид пакети	Техник спецификация номи	Умумий йиғилиш натижаси
1	LRP/G/NCB/10	Бортли юк автомобилларини етказиб бериш	Бир овоздан маъқулланган
2	LRP/G/NCB/11	Ўзи ағдарувчи юк автомобилларини (самосвал) етказиб бериш	Бир овоздан маъқулланган
3	LRP/G/NCB/13	Ихчам гусеницали экскаваторларни етказиб бериш	Бир овоздан маъқулланган
4	LRP/G/NCB/14	Гусеницали бульдозерларни етказиб бериш	Бир овоздан маъқулланган
5	LRP/G/ICB/15	Фронтал юклагичлар ва ғилдиракли экскаваторларни етказиб бериш	Бир овоздан маъқулланган

Шунингдек, “Экология соҳасида инвестиция лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш” бўйича лойиҳа офисининг 2026 йил 28 августдаги 26/226-сон хатида 2026 йил 29 июлдаги умумий муҳокамаларда келишилган айрим техник талаблар билан 2026 йил 3 августдаги 280-сон талабномада келтирилган техник кўрсаткичлар ўртасида фарқлар мавжудлиги қайд этилган.

Хусусан, бортли юк автомобили бўйича шасси тури, юк кўтариш қобилияти, двигател қуввати ва экологик стандарт, ўзи ағдарувчи юк автомобили (самосвал) бўйича эса шасси тури, юк кўтариш қобилияти ва экологик стандартларни қўшимча аниқлаштириш тавсия этилган.

Лойиҳа офисининг мазкур хати ва тавсияларидан келиб чиқиб, бортли юк автомобили ҳамда ўзи ағдарувчи юк автомобили (самосвал) бўйича техник

спецификациялар лойиҳага жалб этилган техник мутахассис томонидан қўшимча равишда қайта кўриб чиқилган ва такомиллаштирилган.

Техник мутахассис томонидан қайта кўриб чиқишда техникаларнинг ўрмон хўжалиги объектларидаги амалий эксплуатация шароитлари, грунт ва қийин ўтувчан йўлларда ҳаракатланиши, юк кўтариш имкониятлари, хавфсизлиги, Ўзбекистон Республикасида сертификатлаш ва давлат рўйхатидан ўтказиш талаблари, кейинги кафолат ва сервис хизмати, эҳтиёт қисмлар билан таъминлаш имкониятлари инобатга олинган.

Натижада техник талабларнинг турлича талқин қилиниши мумкин бўлган айрим бандлари аниқлаштирилиб, техник таклифларни баҳолаш ва кейинчалик техникани қабул қилиш жараёнида бевосита текшириш мумкин бўлган аниқ ва ўлчанадиган техник кўрсаткичлар билан такомиллаштирилган.

LRP/G/ICB/15:

Номи	Минимал техник талаб
Ўрмон хўжалигида фойдаланиш учун фронтал юклагич	**Ишлаб чиқарувчи, модель ва келиб чиқиш мамлакати – иштирокчи томонидан кўрсатилади** Ишлаб чиқарилган йили – шартнома имзоланган санадан олдин бўлмаслиги керак
	Умумий талаблар: • Иш ҳарорати: -33°C дан +50°C гача; • GPS-трекер (қуйидаги GPS-мониторинг тизимига қаранг)
	Вазифаси ва тури: Ўрмон, тоғ ва йўлсиз шароитларда тупроқ, ёғоч/ғўлалар ва сочилувчан материалларни юклаш учун шарнирли-бириктирилган рама ва тўлиқ юритмага эга ғилдиракли фронтал юклагич.
	Асосий параметрлар: Номинал юк кўтариш қобилияти – камида 3 400 кг. Эксплуатацион масса – камида 10 000 кг. Кучайтирилган ижродаги умумий мақсадли чўмич, сиғими камида 2,0 $м^3$.
	Двигатель: Турбонаддув ва суюқлик билан совитиш тизимига эга тўрт тактли дизель двигатель. Қуввати – камида 93 кВт (125 от кучи). Йўлдан ташқари техника двигателининг экологик стандарти – EU Stage IVA, EPA Tier 4 дан паст бўлмаган ёки тасдиқланган эквивалент ёки ундан юқори стандарт. Иштирокчи двигатель ишлаб чиқарувчиси, модели, қуввати ва экологик стандартини кўрсатади.
	Трансмиссия ва юритма: «Powershift» узатмалар кутиси, механик ёки автоматик ёхуд ушбу тоифа учун ишлаб чиқарувчи томонидан штатда қўлланадиган бошқа трансмиссия.

Номи	Минимал техник талаб
	Камида 4 та олдинга ва 3 та орқага узатма ёки эквивалент функционалликка эга поғонасиз/гидростатик тизим. Доимий тўлиқ юритма; дифференциални блоклаш ёки сирпанишни чеклаш.
	Юриш қисми ва шиналар: Йўлсиз шароитда фойдаланиш учун кучайтирилган шарнирли-бириктирилган рама ва кўприклар. Йўл клиренси – камида 400 мм. Сирпанишга қарши занжирлардан фойдаланиш имконини берувчи йўлсиз шароит протекторига эга пневматик шиналар. Ишлаб чиқарувчининг стандарт комплектациясига мувофиқ, шинаси билан тўлиқ ўлчамли захира ғилдирак ва шиналарни таъмирлаш воситалари тўплами.
	Оператор кабинаси ва хавфсизлик: HVAC (иситиш, шамоллатиш, кондиционерлаш) тизимига эга ёпиқ, иссиқлик изоляцияланган кабина. Амалдаги стандартларга мувофиқ ROPS/FOPS ҳимоя конструкциялари. Орқа ойна ҳимоя пўлат тўри билан. Хавфсизлик камарига эга амортизацияланган созланувчи ўриндиқ, кўзгулар, ойна тозалагичлар ва қулфланадиган эшиклар. Асосий параметрларни кўрсатувчи асбоблар панели/дисплей (стандарт индикаторларга эга ЖК-дисплей), милтилловчи маяк, товушли сигнал ва орқага ҳаракатланиш сигнали. Орқа кўриш камераси ёки эквивалент кўриш тизими. AM/FM радио.
	Қўшимча жиҳозлар: Номинал тортиш кучи камида 3 000 кг бўлган механик, гидравлик ёки электр лебёдка. Орқа буксирлаш мосламаси, иккита ғилдирак таглиги, қулфланадиган асбоб қутиси. Тишли чўмич; вилалар ёки ғўла ушлагични ўрнатиш имконияти ишлаб чиқарувчи томонидан тасдиқланиши шарт.
	Ёритиш ва электр жиҳозлари: Олд ва орқа светодиодли ишчи фаралар, сигнал/габарит чироқлари, милтилловчи маяк. Кўрсатилган ҳарорат диапазонида ишончли ишга тушириш учун ишлаб чиқарувчи томонидан назарда тутилган аккумулятор тизими; умумий сиғими – камида 120 А·соат.
	Эҳтиёт қисмлар – Ҳаво фильтрлари – 1 тўплам. – Двигатель мойи фильтри – 8 дона. – Ёқилғи тизими фильтрлари – 8 тўплам. – Гидравлик тизим фильтрлари – 1 тўплам. – Трансмиссия мойи фильтри – 2 дона. – Барча гидроцилиндрлар учун зичлагичлар – 1 тўплам. – Ёқилғи форсункалари – 1 тўплам. – Генератор/вентилятор ремени – 1 дона.

Номи	Минимал техник талаб
	Техник хизмат кўрсатиш асбоблари – Ғилдиракларни ўрнатиш/ечиш учун калит – 1 дона – Калитлар (8 мм дан 24 мм гача ўлчамларда) – 1 тўплам. – Фильтрларни ўрнатиш ва ечиш учун мослама (съёмник) – 1 дона. – Ясси ва крестсимон отвёрткалар – 1 тўплам. – Ишчи қисмларни мойлаш учун шприц;
	Ҳужжатлар: Шасси/транспорт воситаси паспорти, VIN-рўйхат, экологик тоифа бўйича ишлаб чиқарувчи ҳужжатлари, божхона расмийлаштируви ва рўйхатдан ўтказиш учун ҳужжатлар; фойдаланиш, техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш бўйича қўлланмалар, эҳтиёт қисмлар каталоги ва электр схемалари — рус тилида қоғоз ва электрон шаклда.
	Кафолат ва сервис: Якуний қабул қилинган санадан бошлаб камида 12 ой ёки камида 2 000 мото-соат, қайси бири кечроқ тугаса. Кафолат барча узел ва агрегатларни уларнинг барча таркибий қисмлари ҳамда штатда етказиб берилган бошқа жиҳозлар билан қамраб олади. Кафолат мурожаати бўйича жойига чиқиш/дастлабки диагностика — 72 соатдан кечиктирмасдан; эҳтиёт қисмлар камида 10 йил давомида мавжуд бўлиши шарт. Етказиб берувчи машина деталлари/узеллари ёки агрегатларини нуқсон тўғрисидаги далолатнома томонлар томонидан имзоланган санадан бошлаб 28 (йигирма саккиз) кундан ошмаган муддатда ўз ҳисобидан алмаштиради.
	Ўқитиш: Ушбу турдаги техникага техник хизмат кўрсатиш бўйича камида 2 нафар операторни етказиб бериш жойида ўқув материаллари тақдим этилган ҳолда ўқитиш.
	Сервисга қўйиладиган талаб: Етказиб берувчи (ишлаб чиқарувчи) Ўзбекистонда ўз кучлари билан ёки ҳар бир ҳудудда алоҳида шартнома асосида ваколатли ҳамкор орқали сервис қўллаб-қувватлашини таъминлаши шарт. Иштирокчи сервис режасини, манзилларни, мобил бригада алоқаларини, мутахассислар рўйхатини ва кўрсатилган тақсимот ҳудудлари бўйича жавоб бериш муддатларини тақдим этади. Машинага кафолат даврида техник хизмат кўрсатиш бепул амалга оширилиши шарт. Машинага хизмат кўрсатиш ва уни таъмирлаш фақат Ўзбекистон Республикасидаги сервис маркази мутахассислари томонидан бажарилиши шарт.
	GPS: 4G/LTE, GPS ёки унинг эквивалентини қўллаб-қувватлайдиган, 12/24 В қувватланиш ва захира батареясига эга фаоллаштирилган GPS/GNSS-трекер; координаталар, ёқиш ҳолати ва хизмат ҳодисаларини узатиш; Буюртмачининг мониторинг тизими билан мослик ва ҳужжатлаштирилган очиқ API/протокол. Масофавий блоклаш — фақат алоҳида ёзма келишув ва хавфсиз завод интеграцияси мавжуд бўлганда.

Номи	Минимал техник талаб
Ихчам гусеницали экскаватор	**Ишлаб чиқарувчи, модель ва келиб чиқиш мамлакати – иштирокчи томонидан кўрсатилади** Ишлаб чиқарилган йили – шартнома имзоланган санадан олдин бўлмаслиги керак
	Умумий талаблар: • Иш ҳарорати: -30°C дан +50°C гача; • GPS-трекер (қуйидаги GPS-мониторинг тизимига қаранг)
	Вазифаси: Ўрмон, тоғ ва тоғолди ҳудудларида террасалар барпо этиш, тупроқни қазиш ва кўчириш, кўчат экиш ва қурилиш майдонларини тайёрлаш ҳамда текислаш.
	Тури: Тескари чўмичли ва платформаси 360° га айланувчи гусеницали гидравлик экскаватор.
	Двигатель: Суюқлик билан совитиладиган тўрт тактли дизель двигатель; турбонаддувга рухсат этилади. Қуввати – камида 55 кВт (75 от кучи). Йўлдан ташқари техника двигателининг экологик стандарти – EU Stage IVA, EPA Tier 4 дан паст бўлмаган ёки тасдиқланган эквивалент ёки ундан юқори стандарт. Двигатель ва ишга тушириш тизими кўрсатилган ҳарорат диапазонида ишлашни таъминлаши шарт.
	Эксплуатацион масса: Эксплуатацион масса – камида 5 000 ва кўпи билан 8 000 кг.
	Гидравлик тизим: Асосий насосларнинг умумий унумдорлиги – камида 120 л/мин. Иш босими – камида 25 МПа. Гидроболға, юмшатгич ёки бошқа осма жиҳоз учун икки томонлама ҳаракатланувчи қўшимча гидролиния.
	Ишчи жиҳоз: Сиғими 0,25–0,5 м³ бўлган кучайтирилган тишли чўмич (турли ўлчамдаги 3 дона – 0,25/0,4/0,5 тўплам). Максимал қазиш чуқурлиги – камида 4 000 мм. Максимал бўшатиш баландлиги – камида 4 500 мм. Стрела ва рукоять – кучайтирилган ижрода; гидроболға ва юмшатгич билан мослик назарда тутилган.
	Юриш қисми: Металл башмоқларга эга кучайтирилган гусеницали юриш қисми. Башмоқ кенглиги – камида 500 мм. Йўл клиренси – камида 350 мм. Икки ҳаракат тезлиги; максимал транспорт тезлиги – камида 5 км/соат. Ишлаб чиқарувчи конструкциясига мувофиқ гусеницаларни автоматик ёки қўлда таранглаш.
	Қияликларда ишлаш: Паст оғирлик маркази ва барқарор гусеницали база.

Номи	Минимал техник талаб
	Енгиб ўтиладиган қиялик – камида 30°. Аник/секин ҳаракат режими ва ҳаракатнинг автоматик тўхташ тормози. Барқарорлаштириш тизими (электрон ёки механик).
	Оператор кабинаси ва хавфсизлик: Ёпиқ, иссиқлик изоляцияланган, иситиш, шамоллатиш ва ҳавони кондиционерлаш (HVAC) тизими билан. ISO га мувофиқ ROPS/FOPS стандартлари бўйича сертификатланган. Жойстикли бошқарувга эга қулай амортизацияланган ўриндиқ. Пастга ва ён томонларга яхши кўриниш. Ташқи кўзгулар, ойна тозалагичлар, қулфланадиган эшиклар. Кабинадан бошқариладиган томдаги сариқ милтилловчи маяк. AM/FM радио. Стандарт индикаторларга эга ЖК-дисплей. Орқа кўриш камераси ёки эквивалент кўриш тизими.
	Қўшимча жиҳозлар: Олд ва орқа ишчи фаралар (светодиодли). Ёпиш клапанлари ва тез ажраладиган улагичларга эга ёрдамчи гидролиния. Буксирлаш илгаги, қулфланадиган асбоб қутиси, ўт ўчиргич ва биринчи ёрдам қутиси. отбойник.
	Ҳужжатлар: Шасси/транспорт воситаси паспорти, VIN-рўйхат, божхона расмийлаштируви ва рўйхатдан ўтказиш учун ҳужжатлар; фойдаланиш, техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш бўйича қўлланмалар, эҳтиёт қисмлар каталоги ва электр схемалари — рус тилида қоғоз ва электрон шаклда.
	Кафолат муддати: Якуний қабул қилинганидан кейин ўн икки (12) ой ёки 2000 мото-соат, қайси бири кечроқ тугаса. Машина кафолати барча узел ва агрегатларга, уларнинг келиб чиқиш жойидан қатъи назар барча бутловчи қисмлари билан бирга татбиқ этилиши шарт. Кафолат даврида машинада нуқсонлар аниқланган тақдирда, Етказиб берувчи машина деталлари/узеллари ёки агрегатларини нуқсон тўғрисидаги далолатнома томонлар томонидан имзоланган санадан бошлаб 28 (йигирма саккиз) кундан ошмаган муддатда ўз ҳисобидан алмаштириши шарт. Кафолат мурожаати бўйича жойига чиқиш/дастлабки диагностика — 72 соатдан кечиктирмасдан; эҳтиёт қисмлар камида 10 йил давомида мавжуд бўлиши шарт.
	Эҳтиёт қисмлар – Ҳаво фильтрлари – 1 тўплам. – Двигатель мойи фильтри – 8 дона. – Ёқилғи тизими фильтрлари – 8 тўплам. – Гидравлик тизим фильтрлари – 1 тўплам. – Трансмиссия мойи фильтри – 2 дона. – Барча гидроцилиндрлар учун зичлагичлар – 1 тўплам. – Ёқилғи форсункалари – 1 тўплам.

Номи	Минимал техник талаб
	– Генератор/вентилятор ремени – 1 дона.
	Техник хизмат кўрсатиш асбоблари – Гусеницаларни ўрнатиш/ечиш учун калит – 1 дона. – Гайка калитлари (8 мм дан 24 мм гача ўлчамларда) – 1 тўплам. – Фильтрларни ўрнатиш ва ечиш учун мослама (съёмник) – 1 дона. – Шлицли ва крестсимон отвёрткалар – 1 тўплам. – Ишчи қисмларни мойлаш учун шприц;
	Ўқитиш: Ушбу турдаги техникага техник хизмат кўрсатиш бўйича камида 2 нафар операторни етказиб бериш жойида ўқув материаллари тақдим этилган ҳолда ўқитиш.
	Сервисга қўйиладиган талаб: Етказиб берувчи (ишлаб чиқарувчи) Ўзбекистонда ўз кучлари билан ёки ҳар бир ҳудудда алоҳида шартнома асосида ваколатли ҳамкор орқали сервис қўллаб-қувватлашини таъминлаши шарт. Иштирокчи сервис режасини, манзилларни, мобил бригада алоқаларини, мутахассислар рўйхатини ва кўрсатилган тақсимот ҳудудлари бўйича жавоб бериш муддатларини тақдим этади. Машинага кафолат даврида хизмат кўрсатиш бепул амалга оширилиши шарт. Машинага сервис хизмат кўрсатиш ва уни таъмирлаш фақат Ўзбекистон Республикасидаги сервис маркази мутахассислари томонидан бажарилиши шарт.
	GPS: 4G/LTE, GPS ёки унинг эквивалентини қўллаб-қувватлайдиган, 12/24 В қувватланиш ва захира батареясига эга фаоллаштирилган GPS/GNSS-трекер; координаталар, ёқиш ҳолати ва хизмат ҳодисаларини узатиш; Буюртмачининг мониторинг тизими билан мослик ва ҳужжатлаштирилган очиқ API/протокол. Масофавий блоклаш — фақат алоҳида ёзма келишув ва хавфсиз завод интеграцияси мавжуд бўлганда.

LRP/G/ICB/15

Номи	Минимал техник талаб
Ғилдиракли экскаватор	**Ишлаб чиқарувчи, модель ва келиб чиқиш мамлакати – иштирокчи томонидан кўрсатилади** Ишлаб чиқарилган йили – шартнома имзоланган санадан олдин бўлмаслиги керак
	Умумий талаблар: • Иш ҳарорати: -33°C дан +50°C гача; • GPS-трекер (қуйидаги GPS-мониторинг тизимига қаранг)
	Вазифаси ва тури: Ер ишлари, текислаш, юклаш ва майдонларни тозалаш учун платформаси 360° га айланувчи ва тескари чўмичли ғилдиракли гидравлик экскаватор. Машина расмий таснифига мувофиқ йўлларда ва йўлдан ташқари шароитда ишлаш имконини берувчи конструкцияга эга бўлиши шарт.
	Двигатель ва экологик талаблар:

Номи	Минимал техник талаб
	Турбонаддув ва суюқлик билан совитиш тизимига эга тўрт тактли дизель двигатель. Қуввати – камида 100 кВт (135 от кучи). Агар машина «M/N» тоифаларидан ташқаридаги ўзиюрар қурилиш техникаси сифатида таснифланса, двигатель EU Stage IVA, EPA Tier 4 дан паст бўлмаган тегишли йўлдан ташқари стандартга ёки унинг эквивалентига мувофиқ бўлиши шарт. Тасниф ва экологик стандарт ишлаб чиқарувчи ҳамда мувофиқликни баҳолаш органи ҳужжатлари билан тасдиқланади. Совуқда ишга тушириш имконияти: -33°C да ташқи иситишсиз (қиздириш шамлари ёки кириш ҳавоси иситгичи). Ёқилғи сарфи: соатига 15 литрдан ошмаслиги керак (ушбу тоифа учун одатий).
	Эксплуатацион масса: Камида 14 000 ва кўпи билан 20 000 кг. Иштирокчи ҳақиқий массани ва ўқларга рухсат этилган юкламаларни кўрсатади.
	Гидравлик тизим: Асосий насосларнинг умумий унумдорлиги – камида 200 л/мин. Максимал иш босими – камида 30 МПа. Гидроболға/юмшатгич учун икки томонлама ҳаракатланувчи қўшимча гидролиния; оқимни созлаш – штатда ёки дастурланадиган.
	Чўмич ва ишчи жиҳоз: Сиғими 0,5–1,0 м³ бўлган кучайтирилган тишли чўмич. Максимал қазиш чуқурлиги – камида 5 500 мм. Максимал бўшатиш баландлиги – камида 6 000 мм. Барқарор ишлашни таъминлайдиган олд бульдозер отвали ва орқа чиқарма таянчлар ёки бошқа штатдаги барқарорлаштириш тизими. Стрела ва рукоять кучайтирилган ижрода; ҳақиқий ўлчамлар иштирокчи томонидан кўрсатилади.
	Юриш қисми ва ҳаракатчанлик: Йўлсиз шароит учун пневматик шиналарга эга 4×4 тўлиқ юритмали ғилдиракли юриш қисми. Дифференциал блокировкасига эга оғир турдаги кўприклар. Транспорт тезлиги – камида 30 км/соат. Машинанинг расмий таснифига мувофиқ ишчи ва тўхташ тормоз тизимлари (пневматик ёки гидравлик, тўхташ тормози билан). Иккита ғилдирак таглиги.
	Оператор кабинаси ва хавфсизлик: Иситиш, шамоллатиш ва ҳавони кондиционерлаш тизимига эга ёпиқ кабина. ROPS/FOPS ҳимоя конструкцияси ёки тегишли эквивалент. Хавфсизлик камарига эга созланувчи амортизацияланган ўриндиқ ва жойстикли бошқарув. Диагностика панели/дисплейи, кўзгулар, ойна тозалагичлар, милтилловчи маяк, товушли сигнал ва орқага ҳаракатланиш сигнали. Орқа ва/ёки айланма кўриш камераси. AM/FM радио. Асосий индикаторлар ва ЖК-дисплейга эга бошқарув панели.
	Қўшимча жиҳозлар:

Номи	Минимал техник талаб
	Етказиб бериладиган чўмичларга мос гидравлик ёки механик тез алмаштиргич. Осма жиҳозлар учун ёрдамчи гидролиниялар. Олд ва орқа светодиодли ишчи фаралар, буксирлаш мосламалари, қулфланадиган асбоб қутиси, ўт ўчиргич. Чўмичлар тўплами (3 дона). Гидроболға. Орқага ҳаракатланиш товушли сигнали. Қулфланадиган асбоб қутиси.
	Кафолат ва сервис: Якуний қабул қилинган санадан бошлаб камида 12 ой ёки камида 2 000 мото-соат, қайси бири кечроқ тугаса. Кафолат барча узел ва агрегатларни уларнинг барча таркибий қисмлари ҳамда штатда етказиб берилган бошқа жиҳозлар билан қамраб олади. Кафолат мурожаати бўйича жойига чиқиш/дастлабки диагностика — 72 соатдан кечиктирмасдан; эҳтиёт қисмлар камида 10 йил давомида мавжуд бўлиши шарт. Етказиб берувчи машина деталлари/узеллари ёки агрегатларини нуқсон тўғрисидаги далолатнома томонлар томонидан имзоланган санадан бошлаб 28 (йигирма саккиз) кундан ошмаган муддатда ўз ҳисобидан алмаштиради.
	Ҳужжатлар: Шасси/транспорт воситаси паспорти, VIN-рўйхат, экологик тоифа бўйича ишлаб чиқарувчи ҳужжатлари, божхона расмийлаштируви ва рўйхатдан ўтказиш учун ҳужжатлар; фойдаланиш, техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш бўйича қўлланмалар, эҳтиёт қисмлар каталоги ва электр схемалари — рус тилида қоғоз ва электрон шаклда.
	Эҳтиёт қисмлар – Ҳаво фильтрлари – 1 тўплам. – Двигатель мойи фильтри – 8 дона. – Ёқилғи тизими фильтрлари – 8 тўплам. – Гидравлик тизим фильтрлари – 1 тўплам. – Трансмиссия мойи фильтри – 2 дона. – Барча гидроцилиндрлар учун зичлагичлар – 1 тўплам. – Ёқилғи форсункалари – 1 тўплам. – Генератор/вентилятор ремени – 1 дона.
	Техник хизмат кўрсатиш асбоблари – Ғилдиракларни ўрнатиш/ечиш учун калит – 1 дона. – Калитлар (8 мм дан 24 мм гача ўлчамларда) – 1 тўплам. – Фильтрларни ўрнатиш ва ечиш учун мослама (съёмник) – 1 дона. – Ясси ва крестсимон отвёрткалар – 1 тўплам. – Ишчи қисмларни мойлаш учун шприц;
	Ўқитиш: Ушбу турдаги техникага техник хизмат кўрсатиш бўйича камида 2 нафар операторни етказиб бериш жойида ўқув материаллари тақдим этилган ҳолда ўқитиш.
	Сервисга қўйиладиган талаб: Етказиб берувчи (ишлаб чиқарувчи) Ўзбекистонда ўз кучлари билан ёки ҳар бир ҳудудда алоҳида шартнома асосида ваколатли ҳамкор орқали сервис қўллаб-қувватлашини таъминлаши шарт. Иштирокчи сервис

Номи	Минимал техник талаб
	режасини, манзилларни, мобил бригада алоқаларини, мутахассислар рўйхатини ва кўрсатилган тақсимот ҳудудлари бўйича жавоб бериш муддатларини тақдим этади. Машинага кафолат даврида техник хизмат кўрсатиш бепул амалга оширилиши шарт. Машинага хизмат кўрсатиш ва уни таъмирлаш фақат Ўзбекистон Республикасидаги сервис маркази мутахассислари томонидан бажарилиши шарт.
	GPS: 4G/LTE, GPS ёки унинг эквивалентини қўллаб-қувватлайдиган, 12/24 В қувватланиш ва захира батареясига эга фаоллаштирилган GPS/GNSS-трекер; координаталар, ёқиш ҳолати ва хизмат ҳодисаларини узатиш; Буюртмачининг мониторинг тизими билан мослик ва ҳужжатлаштирилган очиқ API/протокол. Масофавий блоклаш — фақат алоҳида ёзма келишув ва хавфсиз завод интеграцияси мавжуд бўлганда.

LRP/G/NCB/14

Номи	Минимал техник талаб
Гусеницали бульдозер	**Ишлаб чиқарувчи, модель ва келиб чиқиш мамлакати – иштирокчи томонидан кўрсатилади** Ишлаб чиқарилган йили – шартнома имзоланган санадан олдин бўлмаслиги керак
	Умумий талаблар: • Иш ҳарорати: -30°C дан +50°C гача; • GPS-трекер (қуйидаги GPS-мониторинг тизимига қаранг)
	Совитиш тизими: Ишлаб чиқарувчи томонидан ташқи ҳаво ҳарорати –30 °C дан +50 °C гача бўлганда машинанинг барқарор ишлаши учун ҳисобланган суюқликли тизим.
	Эксплуатацион масса: Камида 15 000 кг. Иштирокчи таклиф этилаётган моделнинг ҳақиқий эксплуатацион массасини кўрсатади.
	Двигатель: Турбонаддув, суюқлик (ёки ҳаво) билан совитиш ва кўрсатилган ҳарорат диапазонига мос ишга тушириш тизимига эга тўрт тактли дизель двигатель. Номинал/фойдали қуввати – камида 90 кВт (120 от кучи). Йўлдан ташқари техника двигателининг экологик стандарти – EU Stage IVA, EPA Tier 4 дан паст бўлмаган ёки ҳужжат билан тасдиқланган эквивалент ёки ундан юқори стандарт. Иштирокчи двигатель ишлаб чиқарувчиси ва модели, иш ҳажми, номинал қуввати ва экологик стандартини кўрсатади. Ёқилғи сарфи: соатига литр 25 (йигирма беш) л/соатдан ошмаслиги керак.

Номи	Минимал техник талаб
	Оператор кабинаси ва хавфсизлик: Айланма кўриниш, иситиш, шамоллатиш ва ҳавони кондиционерлаш (HVAC) тизимига эга ёпиқ кабина. Амалдаги ISO/SAE стандартлари ёки ҳужжат билан тасдиқланган эквивалентга мувофиқ ROPS ва FOPS ҳимоя конструкциялари. Хавфсизлик камарига эга созланувчи амортизацияланган ўриндиқ. Ойна тозалагичлар, ташқи кўзгулар, қулфланадиган эшиклар, товушли сигнал ва кабинадан бошқариладиган милтилловчи маяк. Орқага ҳаракатланиш ҳақида огоҳлантириш тизими. ЖК-дисплей, ишлаб чиқарувчи томонидан назарда тутилган стандарт индикатор ва асбоблар тўплами. AM/FM радио.
	Юриш қисми: Йўл клиренси – камида 350 мм. Гусеница башмоғи кенглиги – камида 450 мм. Гусеница занжирлари, катоклар, йўналтирувчи ғилдираклар ва ҳимоя элементлари – абразив тупроқ ва ўрмон шароити учун кучайтирилган ижрода.
	Ёқилғи баки: Сиғими – камида 200 л, ёқилғи даражаси кўрсаткичи ва ҳимояланган қуйиш оғзи билан.
	Отвал ва ишчи жиҳоз: Текислаш ва тупроқни кўчиришга мос ярим универсал (SU), тўғри ёки функционал жиҳатдан эквивалент бульдозер отвали. Отвал кенглиги – камида 3 000 мм. Максимал кесиш чуқурлиги – камида 400 мм. Отвални кўтариш, тушириш ва қиялатишни гидравлик бошқариш. Кесувчи қирралар ва бурчак пичоқлари – алмаштириладиган.
	Бошқарув тизими: Ишчи жиҳозни жойстик орқали гидравлик бошқариш; ишлаб чиқарувчининг стандарт конструкциясига мувофиқ гидростатик ёки механик бурилиш бошқаруви.
	Ёритиш: Олд ва орқа светодиодли ишчи фаралар, йўл/габарит чироқлари, сигнал милтилловчи маяк.
	Ҳужжатлар: Шасси/транспорт воситаси паспорти, VIN-рўйхат, экологик тоифа бўйича ишлаб чиқарувчи ҳужжатлари, божхона расмийлаштируви ва рўйхатдан ўтказиш учун ҳужжатлар; фойдаланиш, техник хизмат кўрсатиш ва таъмирлаш бўйича қўлланмалар, эҳтиёт қисмлар каталоги ва электр схемалари — рус тилида қоғоз ва электрон шаклда.
	Кафолат ва сервис: Якуний қабул қилинган санадан бошлаб камида 12 ой ёки камида 2 000 мото-соат, қайси бири кечроқ тугаса. Кафолат барча узел ва агрегатларни уларнинг барча таркибий қисмлари ҳамда штатда етказиб берилган бошқа жиҳозлар билан қамраб олади.

Номи	Минимал техник талаб
	Кафолат мурожаати бўйича жойига чиқиш/дастлабки диагностика — 72 соатдан кечиктирмасдан; эҳтиёт қисмлар камида 10 йил давомида мавжуд бўлиши шарт. Етказиб берувчи машина деталлари/узеллари ёки агрегатларини нуқсон тўғрисидаги далолатнома томонлар томонидан имзоланган санадан бошлаб 28 (йигирма саккиз) кундан ошмаган муддатда ўз ҳисобидан алмаштиради.
	Эҳтиёт қисмлар – Ҳаво фильтрлари – 1 тўплам. – Двигатель мойи фильтри – 8 дона. – Ёқилғи тизими фильтрлари – 8 тўплам. – Гидравлик тизим фильтрлари – 1 тўплам. – Трансмиссия мойи фильтри – 2 дона. – Барча гидроцилиндрлар учун зичлагичлар – 1 тўплам. – Ёқилғи форсункалари – 1 тўплам. – Ҳаракатга келтирувчи двигатель камари – 1 дона.
	Техник хизмат кўрсатиш асбоблари – Гусеницаларни ўрнатиш/ечиш учун калит – 1 дона. – Калитлар (8 мм дан 24 мм гача ўлчамларда) – 1 тўплам. – Фильтрларни ўрнатиш ва ечиш учун мослама (съёмник) – 1 дона. – Ясси ва крестсимон отвёрткалар – 1 тўплам. – Ишчи қисмларни мойлаш учун шприц;
	Ўқитиш: Ушбу турдаги техникага техник хизмат кўрсатиш бўйича камида 2 нафар операторни етказиб бериш жойида ўқув материаллари тақдим этилган ҳолда ўқитиш.
	Сервисга қўйиладиган талаб: Етказиб берувчи (ишлаб чиқарувчи) Ўзбекистонда ўз кучлари билан ёки ҳар бир ҳудудда алоҳида шартнома асосида ваколатли ҳамкор орқали сервис қўллаб-қувватлашини таъминлаши шарт. Иштирокчи сервис режасини, манзилларни, мобил бригада алоқаларини, мутахассислар рўйхатини ва кўрсатилган тақсимот ҳудудлари бўйича жавоб бериш муддатларини тақдим этади. Машинага кафолат даврида техник хизмат кўрсатиш бепул амалга оширилиши шарт. Машинага хизмат кўрсатиш ва уни таъмирлаш фақат Ўзбекистон Республикасидаги сервис маркази мутахассислари томонидан бажарилиши шарт.
	GPS: 4G/LTE, GPS ёки унинг эквивалентини қўллаб-қувватлайдиган, 12/24 В қувватланиш ва захира батареясига эга фаоллаштирилган GPS/GNSS-трекер; координаталар, ёқиш ҳолати ва хизмат ҳодисаларини узатиш; Буюртмачининг мониторинг тизими билан мослик ва ҳужжатлаштирилган очиқ API/протокол. Масофавий блоклаш — фақат алоҳида ёзма келишув ва хавфсиз завод интеграцияси мавжуд бўлганда.

LRP/G/NCB/10:Бортли юк автомобил

T/r	Parametr	Minimal texnik talab
1	Ishlab chiqaruvchi, model, kelib chiqishi va ishlab chiqarilgan yil	Ishlab chiqaruvchi, model va kelib chiqish mamlakati ishtirokchi tomonidan ko‘rsatiladi. Ishlab chiqarilgan yil — shartnoma imzolangan sanadan oldin bo‘lmasligi kerak.
2	Umumiy foydalanish sharoitlari	Ish harorati: −33 °C dan +50 °C gacha. Transport vositasi monitoring tizimiga qo‘yilgan alohida talablarga muvofiq GPS/GNSS-treker bilan jihozlangan bo‘lishi kerak.
3	Mo‘ljallanishi va toifasi	O‘rmon yo‘llari, yo‘lsiz hududlar, tog‘li va tog‘oldi joylarda yuklar, materiallar va uskunalarni tashishga mo‘ljallangan yuqori o‘tuvchanlikka ega bortli yuk avtomobili. Transport vositasining toifasi ishlab chiqaruvchi hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun zarur hujjatlar bilan tasdiqlanadigan tegishli toifa bo‘lishi kerak.
4	Shassi va o‘tuvchanlik	Ikki bosqichli taqsimlash qutisiga ega to‘liq yuritmali ikki o‘qli 4×4 shassi. O‘qlararo va g‘ildiraklararo differensial blokirovkalari yoki o‘tuvchanlikni oshiruvchi teng qiymatli tizim. Konstruktsiya avtomobilning to‘liq yuklangan holatda o‘rmon va grunt yo‘llarida ishlashini ta’minlashi kerak.
5	Yuk ko‘tarish qobiliyati va massalar	To‘liq massa — kamida 18 t; Jihozlangan massa — kamida 7 t; Old o‘qqa ruxsat etilgan yuklama — kamida 6,5 t; Orqa o‘qqa — kamida 11,5 t; Umumiy yuk ko‘tarish qobiliyati — kamida 10 t; Bortli platformaning yuk ko‘tarish qobiliyati — kamida 8 t.
6	Dvigatel	Turbozaryadli va suyuqlik bilan sovitiladigan to‘rt taktli dizel dvigateli. Quvvati — kamida 245 ot kuchi (taxminan 180 kVt). Ekologik ko‘rsatkichlar yetkazib berish sanasida amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq bo‘lishi kerak. **Import qilinadigan «M» va «N» toifadagi transport vositalari uchun ekologik sinf — Euro-4 dan past bo‘lmasligi kerak.** O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan transport vositalari uchun — amaldagi texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash talablariga muvofiqlik ta’minlanishi kerak. Ishtirokchi taklif etilayotgan modelni sertifikatlash, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va qonuniy ekspluatatsiya qilish imkoniyati uchun javob beradi hamda tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi. Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2019-yildagi PF-5863-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 25.04.2017-yildagi 237-son va 19.09.2025-yildagi 597-son qarorlari. Ishga tushirish va sovitish tizimi −30 °C dan +50 °C gacha

		haroratda foydalanishni ta'minlashi kerak. Yoqilg'i baki — kamida 250 l.
7	Transmissiya	Og'ir yo'lsiz sharoitlarda ishlashga mo'ljallangan mexanik uzatmalar qutisi. Kamida 8 ta oldinga uzatma yoki ekspluatatsion imkoniyatlari bo'yicha teng qiymatli uzatish sonlari diapazoni. Pasaytiruvchi uzatmaga ega taqsimlash qutisi. O'rnatilgan jihozlar uchun zarur bo'lsa, quvvat olish qutisi (PTO) yoki uni zavod sharoitida o'rnatish imkoniyati. Yetakchi o'qlarda differensial blokirovkalari, jumladan o'qlararo va g'ildiraklararo blokirovkalar yoki teng qiymatli tizim.
8	Yurish qismi, shinalar va tormozlar	Yo'l oralig'i (klirens) — kamida 350 mm. To'liq yo'lsiz yuklamaga mo'ljallangan kuchaytirilgan rama, lonjeronlar va ko'priklar. Sirpanishga qarshi zanjirlarga mos, chuqur protektorli yo'lsiz sharoit shinalari (14.00 R20, 425/85 R21 yoki yuk ko'tarish qobiliyati va ekspluatatsion xususiyatlari bo'yicha teng qiymatli). Shinalar bosimini markazlashtirilgan boshqarish tizimi yoki bosimni xavfsiz o'zgartirishning zavodda ko'zda tutilgan imkoniyati. Har bir shinaga ruxsat etilgan yuklama — kamida 5 t. Shinali bitta to'liq o'lchamli zaxira g'ildirak. Ishchi, zaxira va to'xtab turish tormoz tizimlari. Yordamchi motor tormozi yoki retarder. ABS/EBS — taklif etilayotgan transport vositasi toifasi uchun majburiy talablarga muvofiq.
9	Kabina va xavfsizlik	Kamida 2 kishiga mo'ljallangan, isitish, shamollatish va konditsionerlash (HVAC) tizimiga ega yopiq, issiqlik izolyatsiyalangan kabina. Xavfsizlik kamariga ega sozlanadigan pnevmatik haydovchi o'rindig'i; barcha o'rindiqlar uchun xavfsizlik kamarlari. Tashqi ko'zgular, oyna tozalagichlar, qulflanadigan eshiklar, quyoshdan himoya soyabonlari va diagnostika paneli. Kabinadan boshqariladigan miltillovchi mayoq, orqaga harakatlanishda ovozli signal va orqa ko'rish kamerasi yoki teng qiymatli ko'rish tizimi. Rul kolonkasini sozlash imkoniyati. AM/FM radio.

10	Bortli platforma	Ochiladigan va yechib olinadigan bortlarga, korroziyaga qarshi himoyaga va sirpanmaydigan polga ega ochiq metall platforma. Ichki o‘lchamlari: uzunligi — kamida 5,0 m; kengligi — kamida 2,3 m; bort balandligi — kamida 0,6 m. Yukni mahkamlash uchun kamida 8 ta nuqta; yoylar va tent — komplektda. Bort devorlari: qalinligi kamida 1,5 mm bo‘lgan C255 markali po‘lat yoki ekvivalenti. Pol: qalinligi kamida 4 mm bo‘lgan riflangan C345 markali po‘lat list yoki ekvivalenti. Ustki rama: qalinligi kamida 6 mm bo‘lgan C355 markali po‘lat yoki ekvivalenti.
11	Qo‘shimcha jihozlar	Nominal tortish kuchi kamida 8 t, tros uzunligi kamida 25 m va avtomatik tormozga ega mexanik, gidravlik yoki elektr chig‘ir. Old va orqa shatak qurilmalari, shatak trosi, 2 ta g‘ildirak to‘sig‘i, domkrat va g‘ildirak almashtirish asboblari, qulflanadigan asbob-uskunalar qutisi. O‘t o‘chirgich, birinchi yordam qutisi, avariya to‘xtash belgisi va yorug‘lik qaytaruvchi jilet.
12	Yoritish va elektr jihozlari	Yo‘l yoritish uskunalarining to‘liq komplekti; old va orqa LED ishchi chiroqlar; miltillovchi mayoq; orqaga harakatlanish ovozli signali; akkumulyator batareyasining asosiy uzgichi. Akkumulyator tizimi — har biri kamida 120 A·soat sig‘imli 2 ta batareya, sovuq iqlim uchun mo‘ljallangan. Generator — zavod komplektatsiyasida, chiqish toki kamida 120 A va barcha o‘rnatilgan elektr iste’molchilarini ta’minlash uchun yetarli quvvatga ega.
13	Hujjatlar	Shassi/transport vositasi pasporti, VIN-varaq, ekologik sinf bo‘yicha ishlab chiqaruvchi hujjatlari, bojxona rasmiylashtiruvi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun hujjatlar; foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash bo‘yicha qo‘llanmalar, ehtiyot qismlar katalogi va elektr sxemalari — rus tilida qog‘oz va elektron shaklda.

14	Kafolat va kafolatli servis	Kafolat — yakuniy qabul qilish sanasidan kamida 12 oy yoki kamida 50 000 km masofa, qaysi biri oldin yuz berishiga qarab. Kafolat shassi, dvigatel, transmissiya, ko‘priklar, elektr jihozlari, platforma, chig‘ir va zavod komplektatsiyasida yetkazib berilgan boshqa jihozlarni qamrab olishi kerak. Kafolat murojaati bo‘yicha joyiga chiqish/dastlabki diagnostika — 72 soatdan kechiktirmay. Ehtiyot qismlar mavjudligi — kamida 10 yil. Kafolat nuqsoni aniqlanganda Yetkazib beruvchi nosoz detallar, uzellar yoki agregatlarni tomonlar nuqson dalolatnomasini imzolagan sanadan boshlab 28 kalendar kundan kechiktirmay o‘z hisobidan almashtiradi.
15	Texnik xizmat ko‘rsatish asboblari (har bir birlik uchun)	8–24 mm kalitlar to‘plami — 1 to‘plam; yassi va krestsimon otvyortkalar to‘plami — 1 to‘plam; filtr yechgich — 1 dona; moylash shpritsi — 1 dona; shina manometri — 1 dona; g‘ildirak to‘siqlari — 2 dona (agar qo‘shimcha jihozlar komplektida hisobga olinmagan bo‘lsa).
16	Ehtiyot qismlar va sarf elementlari (har bir birlik uchun)	Havo filtrlari — 1 to‘plam; dvigatel moyi filtrlari — 2 dona; yoqilg‘i filtrlari — 2 dona (mavjud bo‘lsa, suv separatori bilan); yuritma tasmalari — 1 to‘plam; shina ta’mirlash to‘plami — 1 to‘plam; fonar lampalari — 1 to‘plam; g‘ildiraklarni o‘rnatish/yechish kaliti — 1 dona.
17	O‘qitish	Yetkazib berish joyida ushbu turdagi avtomobilni boshqarish, ekspluatatsiya qilish va bazaviy texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kamida 2 nafar haydovchi/operatorni o‘qitish hamda o‘quv materiallarini taqdim etish.
18	Servis qo‘llab-quvvatlashi	Yetkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi) O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z kuchi bilan yoki yetkazib berish hududlaridagi vakolatli servis hamkorlari orqali servis qo‘llab-quvvatlashini ta’minlashi kerak. Ishtirokchi servis rejasi, servis punktlari/mobil brigadalar manzili va aloqa ma’lumotlari, mutaxassislar ro‘yxati hamda javob berish muddatlarini taqdim etadi. Kafolat davrida texnik xizmat ko‘rsatish qo‘shimcha haq olinmasdan amalga oshiriladi. Xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash O‘zbekiston Respublikasi hududidagi servis tashkilotining malakali mutaxassislari tomonidan bajariladi.

19	GPS/GNSS monitoring	4G/LTE, GPS yoki teng qiymatli sun'iy yo'ldosh tizimini qo'llab-quvvatlovchi, 12/24 V quvvat manbai va zaxira batareyasiga ega faollashtirilgan GPS/GNSS-treker. Koordinatalar, o't oldirish holati, bosib o'tilgan masofa va xizmat hodisalarini uzatish. Buyurtmachining monitoring tizimi bilan moslik va hujjatlashtirilgan ochiq API/protokol mavjudligi. Masofadan blokirovka qilish funksiyasiga faqat alohida yozma kelishuv va xavfsiz zavod integratsiyasi mavjud bo'lganda yo'l qo'yiladi.

LRP/G/NCB/11:

T/r	Parametr	Minimal texnik talab
1	Ishlab chiqaruvchi, model, kelib chiqishi va ishlab chiqarilgan yil	Ishlab chiqaruvchi, model va kelib chiqish mamlakati ishtirokchi tomonidan ko'rsatiladi. Ishlab chiqarilgan yil — shartnoma imzolangan sanadan oldin bo'lmasligi kerak.
2	Umumiy foydalanish sharoitlari	Ish harorati: −33 °C dan +50 °C gacha. Transport vositasi monitoring tizimiga qo'yilgan alohida talablarga muvofiq GPS/GNSS-treker bilan jihozlangan bo'lishi kerak.
3	Mo'ljallanishi va toifasi	O'rmon yo'llari va yo'lsiz hududlarda tuproq, chaqiq tosh, shag'al va o'rmon xo'jaligi qoldiqlarini tashish hamda tushirishga mo'ljallangan yuqori o'tuvchanlikka ega o'zi ag'daruvchi yuk avtomobili. Transport vositasining toifasi O'zbekiston Respublikasiga import qilish, sertifikatlash va davlat ro'yxatidan o'tkazishni ta'minlaydigan tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanishi kerak.
4	Shassi va o'tuvchanlik	Ikki bosqichli taqsimlash qutisiga ega to'liq yuritmali ikki o'qli 4×4 shassi. O'qlararo va g'ildiraklararo differensial blokirovkalari yoki o'tuvchanlikni oshiruvchi teng qiymatli tizim. Rama, osma va ko'priklar avtomobilning to'liq yuklangan holatda o'rmon va grunt yo'llarida ishlashini ta'minlashi kerak.
5	Yuk ko'tarish qobiliyati va massalar	To'liq massa — kamida 18 t; Jihozlangan massa — kamida 7 t; Old o'qqa ruxsat etilgan yuklama — kamida 6,5 t; Orqa o'qqa — kamida 11,5 t; Umumiy yuk ko'tarish qobiliyati — kamida 10 t; O'zi ag'daruvchi kuzovning yuk ko'tarish qobiliyati — kamida 8 t.

6	Dvigatel	Turbozaryadli va suyuqlik bilan sovitiladigan to‘rt taktli dizel dvigateli. Quvvati — kamida 250 ot kuchi. Ekologik ko‘rsatkichlar yetkazib berish sanasida amalda bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq bo‘lishi kerak. **Import qilinadigan «M» va «N» toifadagi transport vositalari uchun ekologik sinf — Euro-4 dan past bo‘lmasligi kerak.** O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan transport vositalari uchun — amaldagi texnik reglamentlar va muvofiqlikni baholash talablariga muvofiqlik ta’minlanishi kerak. Ishtirokchi taklif etilayotgan modelni sertifikatlash, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va qonuniy ekspluatatsiya qilish imkoniyati uchun javob beradi hamda tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi. Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2019-yildagi PF-5863-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 25.04.2017-yildagi 237-son va 19.09.2025-yildagi 597-son qarorlari. Ishga tushirish va sovitish tizimi −30 °C dan +50 °C gacha haroratda foydalanishni ta’minlashi kerak. Yoqilg‘i baki — kamida 300 l.
7	Transmissiya	Og‘ir yo‘lsiz sharoitlarda ishlashga mo‘ljallangan mexanik uzatmalar qutisi. Kamida 9 ta oldinga uzatma yoki ekspluatatsion imkoniyatlari bo‘yicha teng qiymatli uzatish sonlari diapazoni. Pasaytiruvchi uzatmaga ega taqsimlash qutisi. O‘zi ag‘daruvchi kuzovning gidravlik yuritmasi uchun quvvat olish qutisi (PTO). Yetakchi o‘qlarda differensial blokirovkalari, jumladan o‘qlararo va g‘ildiraklararo blokirovkalar yoki teng qiymatli tizim.
8	O‘zi ag‘daruvchi kuzov	Orqa tomonga ag‘darib tushiriladigan, geometrik hajmi kamida 6 m^3 bo‘lgan kuzov. Pol va bortlar — yuqori mustahkamlikdagi yeyilishga chidamli po‘latdan (masalan, 09G2S yoki xususiyatlari yomon bo‘lmagan ekvivalent materialdan). Ortiqcha yuklanishdan himoyaga ega gidravlik teleskopik ko‘tarish mexanizmi. Ishonchli qulflash mexanizmiga ega orqa bort. Ko‘tarilgan kuzovga xizmat ko‘rsatish uchun mexanik xavfsizlik tayanchi. Kabina ustidagi kuzov old qismi uchun himoya soyaboni.

9	Yurish qismi, shinalar va tormozlar	Yo‘l oralig‘i (klirens) — kamida 400 mm. Avtomobilning to‘liq massasi va yo‘lsiz sharoitda ishlashga mo‘ljallangan kuchaytirilgan rama, lonjeronlar, osma va ko‘priklar. Sirpanishga qarshi zanjirlarga mos, chuqur protektorli yo‘lsiz sharoit shinalari (14.00 R20, 425/85 R21 yoki yuk ko‘tarish qobiliyati va ekspluatatsion xususiyatlari bo‘yicha teng qiymatli). Shinalar bosimini markazlashtirilgan boshqarish tizimi yoki bosimni xavfsiz o‘zgartirishning zavodda ko‘zda tutilgan imkoniyati. Har bir shinaga ruxsat etilgan yuklama — kamida 5 t. Shinali bitta to‘liq o‘lchamli zaxira g‘ildirak. Ishchi, zaxira va to‘xtab turish tormoz tizimlari. Yordamchi motor tormozi yoki retarder. ABS/EBS — taklif etilayotgan transport vositasi toifasi uchun majburiy talablarga muvofiq.
10	Kabina va xavfsizlik	Kamida 2 kishiga mo‘ljallangan, isitish, shamollatish va konditsionerlash (HVAC) tizimiga ega yopiq, issiqlik izolyatsiyalangan kabina. Xavfsizlik kamariga ega sozlanadigan pnevmatik haydovchi o‘rindig‘i; barcha o‘rindiqlar uchun xavfsizlik kamarlari. Tashqi ko‘zgular, oyna tozalagichlar, qulflanadigan eshiklar, quyoshdan himoya soyabonlari va diagnostika paneli. Kabinadan boshqariladigan miltillovchi mayoq, orqaga harakatlanishda ovozli signal va orqa ko‘rish kamerasi yoki teng qiymatli ko‘rish tizimi. Rul kolonkasini sozlash imkoniyati. AM/FM radio.
11	Qo‘shimcha jihozlar	Nominal tortish kuchi kamida 8 t, tros uzunligi kamida 25 m va avtomatik tormozga ega mexanik, gidravlik yoki elektr chig‘ir. Old va orqa shatak qurilmalari, shatak trosi, 2 ta g‘ildirak to‘sig‘i, domkrat va g‘ildirak almashtirish asboblari, qulflanadigan asbob qutisi. O‘t o‘chirgich, birinchi yordam qutisi, avariya to‘xtash belgisi va yorug‘lik qaytaruvchi jilet. Orqaga harakatlanish ovozli signali va orqa ko‘rish kamerasi.
12	Yoritish va elektr jihozlari	Ro‘yxatdan o‘tkazish va ekspluatatsiya qilish uchun zarur yo‘l yoritish uskunalarining to‘liq komplekti; old va orqa LED ishchi chiroqlar, shu jumladan tushirish zonasini yoritish; miltillovchi mayoq; orqaga harakatlanish ovozli signali; akkumulyator batareyasining asosiy uzgichi. Akkumulyator tizimi — har biri kamida 120 A·soat sig‘imli 2 ta batareya, sovuq iqlim uchun mo‘ljallangan. Generator — zavod komplektatsiyasida, chiqish toki kamida 120 A va barcha o‘rnatilgan elektr iste’molchilarini ta’minlash uchun yetarli quvvatga ega.
13	Hujjatlar	Shassi/transport vositasi pasporti, VIN-varaq, ekologik sinf bo‘yicha ishlab chiqaruvchi hujjatlari, bojxona rasmiylashtiruvi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun hujjatlar; foydalanish, texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash bo‘yicha qo‘llanmalar, ehtiyot qismlar katalogi va elektr sxemalari — rus tilida qog‘oz va elektron shaklda.

14	Kafolat va kafolatli servis	Kafolat — yakuniy qabul qilish sanasidan kamida 12 oy yoki kamida 50 000 km masofa, qaysi biri oldin yuz berishiga qarab. Kafolat shassi, dvigatel, transmissiya, ko‘priklar, elektr jihozlari, o‘zi ag‘daruvchi kuzov va zavod komplektatsiyasida yetkazib berilgan boshqa jihozlarni qamrab olishi kerak. Kafolat murojaati bo‘yicha joyiga chiqish/dastlabki diagnostika — 72 soatdan kechiktirmay. Ehtiyot qismlar mavjudligi — kamida 10 yil. Kafolat nuqsoni aniqlanganda Yetkazib beruvchi nosoz detallar, uzellar yoki agregatlarni tomonlar nuqson dalolatnomasini imzolagan sanadan boshlab 28 kalendar kundan kechiktirmay o‘z hisobidan almashtiradi.
15	Texnik xizmat ko‘rsatish asboblari (har bir birlik uchun)	8–24 mm kalitlar to‘plami — 1 to‘plam; yassi va krestsimon otvyortkalar to‘plami — 1 to‘plam; filtr yechgich — 1 dona; moylash shpritsi — 1 dona; shina manometri — 1 dona; g‘ildirak to‘siqlari — 2 dona (agar qo‘shimcha jihozlar komplektida hisobga olinmagan bo‘lsa)
16	Ehtiyot qismlar va sarf elementlari (har bir birlik uchun)	Havo filtrlari — 1 to‘plam; dvigatel moyi filtrlari — 2 dona; yoqilg‘i filtrlari — 2 dona (mavjud bo‘lsa, suv separatori bilan); kuzovni ko‘tarish mexanizmi uchun gidravlik moy filtri — 1 dona; yuritma tasmalari — 1 to‘plam; shina ta’mirlash to‘plami — 1 to‘plam; ko‘tarish mexanizmi va chig‘ir gidrotsilindrlari zichlagichlari — 1 to‘plam; fonar lampalari — 1 to‘plam; standart gidravlik shlanglar — 1 to‘plam; g‘ildiraklarni o‘rnatish/yechish kaliti — 1 dona
17	O‘qitish	Yetkazib berish joyida ushbu turdagi texnikani boshqarish, ekspluatatsiya qilish va bazaviy texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kamida 2 nafar haydovchi/operatorni o‘qitish hamda o‘quv materiallarini taqdim etish.
18	Servis qo‘llab-quvvatlashi	Yetkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi) O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘z kuchi bilan yoki yetkazib berish hududlaridagi vakolatli servis hamkorlari orqali servis qo‘llab-quvvatlashini ta’minlashi kerak. Ishtirokchi servis rejasi, servis punktlari/mobil brigadalar manzili va aloqa ma’lumotlari, mutaxassislar ro‘yxati hamda javob berish muddatlarini taqdim etadi. Kafolat davrida texnik xizmat ko‘rsatish qo‘shimcha haq olinmasdan amalga oshiriladi. Xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash O‘zbekiston Respublikasi hududidagi servis tashkilotining malakali mutaxassislari tomonidan bajariladi.

19	GPS/GNSS monitoring	4G/LTE, GPS yoki teng qiymatli sun'iy yo'ldosh tizimini qo'llab-quvvatlovchi, 12/24 V quvvat manbai va zaxira batareyasiga ega faollashtirilgan GPS/GNSS-treker. Koordinatalar, o't oldirish holati, bosib o'tilgan masofa va xizmat hodisalarini uzatish. Buyurtmachining monitoring tizimi bilan moslik va hujjatlashtirilgan ochiq API/protokol mavjudligi. Masofadan blokirovka qilish funksiyasiga faqat alohida yozma kelishuv va xavfsiz zavod integratsiyasi mavjud bo'lganda yo'l qo'yiladi.

МУҲОКАМА ҚИЛИНДИ:

Кенгаш аъзолари Лойиҳа офисининг 2026 йил 28 августдаги 26/226-сон хати, 2026 йил 3 августдаги 280-сон талабнома, 2026 йил 29 июлда ўтказилган муҳокамалар натижалари ҳамда техник мутахассис томонидан тақдим этилган техник хулоса ва қайта ишланган техник спецификацияларни кўриб чиқдилар.

Муҳокама жараёнида Лойиҳа офиси томонидан билдирилган тавсиялар техник жиҳатдан қўшимча ўрганилгани, бунда якуний техник талаблар муайян ишлаб чиқарувчи ёки модельга йўналтирилмасдан, техниканинг функционал вазифаси, эксплуатация шароитлари ва объектив ўлчанадиган кўрсаткичлар асосида шакллантирилганлиги қайд этилди. Хусусан, бортли ва ўзи ағдарувчи юк автомобилларининг шасси ва юриш қисми бўйича талаблар ўрмон ва грунт йўлларида ишлаш шароитларидан келиб чиқиб аниқлаштирилган. Транспорт воситаларининг юк кўтариш қобилияти, двигател қуввати, йўл оралиғи, тормоз тизими, шиналар, юк платформаси ва кузов параметрлари, қўшимча жиҳозлари ҳамда хавфсизлик талаблари қайта кўриб чиқилган. Экологик кўрсаткичлар бўйича транспорт воситаларини Ўзбекистон Республикасида қонуний олиб кириш, сертификатлаш, давлат рўйхатидан ўтказиш ва эксплуатацияга рухсат бериш талабларига мувофиқликни таъминлаш асосий тамойил сифатида белгиланган. Шунингдек, кафолат муддати, кафолат мурожаатларига жавоб бериш, Ўзбекистон ҳудудида сервис хизмати кўрсатиш имконияти, эҳтиёт қисмларни таъминлаш, ҳайдовчи ва операторларни ўқитиш ҳамда техник ҳужжатларни тақдим этиш бўйича талаблар сақлаб қолинган ва аниқлаштирилган. Кенгаш аъзолари томонидан киритилган ўзгартиш ва аниқлаштиришлар техник таклифларни холис баҳолаш, харид қилинадиган техниканинг амалдаги эксплуатация эҳтиёжларига мувофиқлигини таъминлаш, кейинги сертификатлаш ва эксплуатация билан боғлиқ хатарларни камайтириш ҳамда буюртмачининг кафолат ва сервис бўйича манфаатларини ҳимоя қилишга хизмат қилиши таъкидланди. Шу билан бирга, техник талабларни қайта кўриб чиқиш харид предметининг асосий функционал мақсадини ўзгартирмаслиги, балки аввалги талабларни аниқлаштириш ва такомиллаштиришга қаратилганлиги қайд этилди. Кенгаш томонидан, шунингдек, харид

пакетларининг рақами, товарлар миқдори, тахминий қиймати, харид усули ва бошқа тижорат ҳамда процедура шартлари Тармоқ илмий-техник кенгаши қарорининг бевосита предмети ҳисобланмаслиги, мазкур масалалар тасдиқланган харид режаси, бозор таҳлили ва Жаҳон банкининг харид тартиб-таомилларига мувофиқ алоҳида белгиланиши таъкидланди.

ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

1. Экология соҳасида инвестиция лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш бўйича лойиҳа офисининг 2026 йил 28 августдаги 26/226-сон хатида махсус техника ва автотранспорт воситалари бўйича билдирилган тавсия ва мулоҳазалар маълумот ва ишда фойдаланиш учун қабул қилинсин;
2. Лойиҳа офисининг мазкур тавсияларидан келиб чиқиб, техник мутахассис томонидан қўшимча равишда ўрганилган ва такомиллаштирилган бортли юк автомобили ҳамда ўзи ағдарувчи юк автомобили бўйича техник талаблар маъқуллансин;
3. Қайта харид қилинадиган олти турдаги махсус техника ва автотранспорт воситалари бўйича техник спецификациялар қуйидаги амалдаги харид пакетларига мувофиқ қўлланилиши белгилансин;
4. LRP/G/NCB/10 харид пакети бўйича бортли юк автомобилининг мазкур баённомага илова қилинаётган қайта ишланган техник спецификацияси тасдиқлансин;
5. LRP/G/NCB/11 харид пакети бўйича ўзи ағдарувчи юк автомобилининг мазкур баённомага илова қилинаётган қайта ишланган техник спецификацияси тасдиқлансин;
6. LRP/G/NCB/13 харид пакети бўйича ихчам гусеницали экскаватор, LRP/G/NCB/14 харид пакети бўйича гусеницали бульдозер ҳамда LRP/G/ICB/15 харид пакети бўйича фронтал юклагич ва ғилдиракли экскаваторга доир аввалги Тармоқ илмий-техник кенгаши йиғилишида маъқулланган техник талаблар, уларга мазкур йиғилиш доирасида мазмунан ўзгартиш киритилмаган ҳолда, тегишли янги харид пакетлари доирасида қўлланилсин;
7. Бортли юк автомобили ва ўзи ағдарувчи юк автомобили бўйича аввалги йиғилишда маъқулланган техник спецификациялар мазкур баённома билан тасдиқланган янги таҳрирдаги техник спецификациялар билан алмаштирилган деб ҳисоблансин;
8. Мазкур баённома билан тасдиқланган ва амал қилиши сақлаб қолинган техник спецификациялар баённоманинг ажралмас қисми ҳисоблансин;
9. Лойиҳани амалга ошириш гуруҳи мазкур техник спецификацияларни тегишли равишда LRP/G/NCB/10, LRP/G/NCB/11, LRP/G/NCB/13, LRP/G/NCB/14 ва LRP/G/ICB/15 харид ҳужжатларига киритсин ҳамда кейинги харид жараёнларида улардан ягона техник асос сифатида фойдалансин;

10. Техник спецификацияларда келтирилган талаблар муайян ишлаб чиқарувчи, товар белгиси ёки моделга асоссиз устунлик бермаслиги, тендер иштирокчиларига белгиланган минимал техник ва функционал кўрсаткичларга тенг ёки юқори бўлган техник ечимларни таклиф қилиш имконияти таъминланиши белгилансин;

11. Харид қилинадиган товарлар миқдори, харид пакетларининг тахминий қиймати, харид усули, молиялаштириш манбаи, етказиб бериш муддатлари ва бошқа тижорат ҳамда процедура параметрлари мазкур Кенгаш қарорининг предмети ҳисобланмаслиги ва тасдиқланган харид режаси, бозор таҳлили ҳамда Жаҳон банкининг харид тартиб-таомилларига мувофиқ алоҳида белгиланиши қайд этилсин;

12. Келгусида тасдиқланган техник спецификацияларга мазмунан ўзгартиш киритиш зарурати юзага келган тақдирда, тегишли ўзгартишлар якуний фойдаланувчиларнинг асосланган эҳтиёжлари ва техник мутахассисларнинг хулосаси асосида қайта кўриб чиқилиб, белгиланган тартибда тасдиқланиши белгилансин;

13. Мазкур қарор ижросини назорат қилиш Тармоқ илмий-техник кенгаши раиси зиммасига юклатилсин.

Овоз бериш натижалари:

«Рози» — бир овоздан; «Қарши» — 0; «Бетараф» — 0.

Коллегиал илмий-техник кенгаши аъзоларининг имзолари:

Т/р	Ф.И.Ш	Лавозими	Имзо
1	О. Соатов	Қишлоқ хўжалиги вазирлиги бошқарма бошлиғи	
2	У. Собиров	Экология ва иқлим ўзгариши миллий қўмитаси бош мутахассиси	
3	Б. Мамутов	Ўрмон илмий-тадқиқот институти директори ўринбосари	
4	*Вакант*	Тошкент давлат аграр университети Ўрмон хўжалиги факультети доценти, профессор	
5	Ғ. Нематов	Ўрмон агентлиги бўлим бошлиғи	
6	Ў. Давронов	Ўрмон агентлиги бошқарма бошлиғи	
7	С. Мадаминов	Ўрмон агентлиги бўлим бошлиғи	
8	З. Эшанкулов	Ўрмон агентлиги бўлим бошлиғи	
9	М. Ғаниев	Ўрмон агентлиги бош мутахассиси	
10	С. Холбўтаев	“Яшил лойиҳа” лойиҳалаш институти бўлим бошлиғи	